



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 5 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 5

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 5



ТОШКЕНТ-2026

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№5 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-5>

Бош муҳаррир:  
Главный редактор:  
Chief Editor:

**Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:  
Заместитель главного редактора:  
Deputy Chief Editor:

**Fayziev Shoxrud Farmonovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

**Boboyev Halimboy Boboyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Sattorov Abdug'affor**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Yosuke Shamoto**  
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)  
**Umarxanova Dildora Sharipxanovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Nematov Jo'rabek Nematilloevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

**Malikova Gulchexra**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Xusanov Ozod Tillabayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Selimanova Svetlana Mixaylovna**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

**Xvan Leonid Borisovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)  
**Peshkova Xristina Vyacheslovovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)  
**Sung Un Lee**  
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ҲУҚУҚРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

**Oqyulov Omonboy**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ruziyev Rustam Jabborovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Borotov Mirodiljon Xomudjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Toshev Boboqul Norqobilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Shomuxamedova Zamira Shoislamovna**  
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)  
**Ahmad Issa Altweissi**  
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)  
**Mexmonov Kambariddin Miradxanovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ҲУҚУҚРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

**Esanova Zamira Normurodovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jason A.**  
Kanton Federal sud markazi (AQSH)  
**Borut Strazisar**  
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

**Usmanova Muborak Akmalxanovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Gasanov Mixail Yuriyevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)  
**Sattorova Gulnoza Djurakulovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Murodova Gulnora**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)  
**Denisov Gleb**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Fayziyev Shuxrat Xasanovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Usmonov Muhammadi Bahridinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Xolmuminov Juma**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jo'rayev Yuldash Achilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Po'latov Baxtiyor Xalilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Salomov Baxrom Salomovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Osmonaliyev Qayrat**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirzayev Aziz**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Aleksey Kibalnik**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Kudryavtsev Vladislav Leonidovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Sergey Shoshin**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)  
**James B.**  
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

**Rustambayev Mirzayusup Hakimovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Zufarov Rustam Axmedovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Kabulov Rustam**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Rajabova Mavjuda Abdullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ismailov Isomiddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)  
**Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Djansarayeva Rima Ernatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Yelena Antonyan Aleksandrovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Matthew Light**  
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)  
**Qo'shayev Nurali Mahmudovich**  
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


**Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Pulatov Yuriy Safiyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**To'laganova Gulchehra Zaxitovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirazov Davron Miragzamovich**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)  
**Rijakov Aleksandr Petrovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Stoyko Nikolay Genadyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Iskandarov Zayniddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Sergey Pen**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Aleksey Purs**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)  
**Jurgen Maurer**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)  
**Kevin Curtin**  
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

**Ismoilov Bahodir Islamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Yuldasheva Govxerjan**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Alexander Trunk**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

|                                                                                                                                                                  |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>1. Artikov Dilmurod Raxmatillayevich</b>                                                                                                                      |     |
| MA’MURIY SUD ISHLARINI YURITISH PRINSIPLARINING YURIDIK TAVSIFI.....                                                                                             | 5   |
| <b>2. Sayfullaeva Venera Nimatjonovna</b>                                                                                                                        |     |
| AXBOROT XAVFSIZLIGI SOHASIDA SUN’IY INTELLEKT HUQUQIY KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHI.....                                                                         | 14  |
| <b>3. Бойтураев Дилшод Маматкарим угли</b>                                                                                                                       |     |
| ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ РЕОРГАНИЗАЦИИ ОБЩЕСТВ С ОГРАНИЧЕННОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТЬЮ В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....    | 26  |
| <b>4. Hazratqulov Zahridin Sobirjanovich</b>                                                                                                                     |     |
| KREDIT SEKTORIDA QONUN BUZILISHLARI HOLATLARIGA QARSHI KURASHNI MUVOFIQLASHTIRISHDA PROKURATURA ORGANLARI FAOLIYATINING NAZARIY-HUQUQIY VA AMALIY JIHATLARI..... | 40  |
| <b>5. Khamidov Nurmukhammad Orif ugli, Najimova Jamola Davron qizi</b>                                                                                           |     |
| ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND THE FUTURE OF CRIMINAL LIABILITY: A COMPARATIVE LEGAL ANALYSIS.....                                                                  | 50  |
| <b>6. Hojiyev Nosirjon Komilovich</b>                                                                                                                            |     |
| GIYOHVANDLIK VOSITALARINI, ULARNING ANALOGLARINI YOKI PSIXOTROP MODDALARNI ISTE’MOL QILISHGA JALB ETGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK: XORIJIY TAJRIBA.....               | 59  |
| <b>7. Qo’chqarov Jaloliddin Nurilla o’g’li</b>                                                                                                                   |     |
| MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH UCHUN JINOIY JAVOBGARLIKNING KELIB CHIQISHI HAMDA UNING AHAMIYATI.....                                               | 67  |
| <b>8. Утаев Хусниддин Хуррамович</b>                                                                                                                             |     |
| РАҚАМЛИ МУҲИТДА ФИРИБГАРЛИК ЖИНОЯТИНИНГ ОБЪЕКТИВ БЕЛГИЛАРИНИ ЖИНОИЙ ҲУҚУҚИЙ БАҲОЛАШ МАСАЛАЛАРИ.....                                                              | 74  |
| <b>9. Нодиров Музаффар Ахмадович, Хайдарова Шохида Ахрор кизи</b>                                                                                                |     |
| ОЦЕНИВАНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОКУРОРОВ.....                                                                                                                          | 81  |
| <b>10. Ummatov Muhammadrasul Tursunovich</b>                                                                                                                     |     |
| KOMPYUTER AXBOROTIDAN QONUNGA XILOF RAVISHDA FOYDALANISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR.....                                           | 93  |
| <b>11. Хамдамова Фируза Уразалиевна</b>                                                                                                                          |     |
| ПРАВО РЕБЁНКА НА ДОСТУП К ИНФОРМАЦИИ И ЗАЩИТУ ОТ ВРЕДНОСНОГО КОНТЕНТА.....                                                                                       | 100 |
| <b>12. Султонов Абдулла Тоштемир ўғли</b>                                                                                                                        |     |
| ФИШИНГ ВА ОНЛАЙН ФИРИБГАРЛИККА ҚАРШИ КУРАШИШ СОҲАСИДАГИ МИЛЛИЙ ҚОНУНЧИЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.....                                                      | 108 |



## 12.00.07-СУДЕБНАЯ ВЛАСТЬ. ПРОКУРОРСКИЙ НАДЗОР. ОРГАНИЗАЦИЯ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. АДВОКАТУРА

**Hazratqulov Zahriddin Sobirjanovich,**

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish

Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

E-mail: mamajanovabror2001@gmail.com

### KREDIT SEKTORIDA QONUN BUZILISHLARI HOLATLARIGA QARSHI KURASHNI MUVOFIQLASHTIRISHDA PROKURATURA ORGANLARI FAOLIYATINING NAZARIY-HUQUQIY VA AMALIY JIHATLARI

**For citation:** Khazratqulov Zahriddin Sobirjanovich. THEORETICAL, LEGAL AND PRACTICAL ASPECTS OF THE ACTIVITIES OF PROSECUTION AUTHORITIES IN COORDINATING THE FIGHT AGAINST VIOLATIONS OF LAW IN THE CREDIT SECTOR. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 5.



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.22235151>

#### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada kredit sektorida qonun buzilishlari holatlariga qarshi kurashni muvofiqlashtirishda prokuratura organlari faoliyatining nazariy-huquqiy, institutsional va amaliy jihatlarini kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotda kredit munosabatlari moliya-bank tizimining barqarorligi, iqtisodiy xavfsizlik, banklarga bo'lgan ishonch va investitsiyaviy muhitga ta'sir ko'rsatuvchi muhim huquqiy-iqtisodiy institut sifatida baholanadi. Shu nuqtai nazardan, kredit sektoridagi qonun buzilishlari faqat bank va mijoz o'rtasidagi xususiy shartnomaviy nizo doirasida emas, balki moliyaviy intizom, korruptsiyaviy xavflar, jinoiy daromadlarni legallashtirish, muammoli kreditlar ulushining ortishi va davlat iqtisodiy manfaatlariga tahdid soluvchi tizimli hodisa sifatida o'rganilgan. Maqolada prokuratura organlarining muvofiqlashtiruvchi funktsiyasi mustaqil prokurorlik faoliyati yo'nalishi sifatida ochib berilib, uning nazorat, jinoiy ta'qib, profilaktika va idoralararo hamkorlik bilan o'zaro bog'liqligi asoslangan. Shuningdek, kredit sektoridagi huquqbuzarliklarni aniqlash va bartaraf etishda Markaziy bank, soliq organlari, moliyaviy monitoring tuzilmalari, tijorat banklari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida samarali axborot almashinuvi muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan. Tadqiqotda xorijiy mamlakatlar tajribasi, xususan Germaniya, AQSh, Rossiya va FATF tavsiyalari qiyosiy tahlil qilinib, O'zbekiston amaliyoti uchun ixtisoslashgan prokurorlar korpusini shakllantirish, yagona raqamli monitoring platformasini joriy etish, riskka asoslangan nazorat modelini kuchaytirish hamda kredit sektorida profilaktik prokuror tahlilini rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** kredit sektori, kredit munosabatlari, qonun buzilishlari, prokuror nazorati, prokuratura muvofiqlashtiruvi, moliyaviy barqarorlik, iqtisodiy xavfsizlik, bank siri, manfaatlar to'qnashuvi, muammoli kreditlar, AML/CFT, raqamli monitoring.

**Хазраткулов Захриддин Собиржанович,**  
Самостоятельный соискатель Правоохранительной  
Академии Республики Узбекистан  
E-mail: mamajanovabror2001@gmail.com

## **ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНОВ ПРОКУРАТУРЫ ПО КООРДИНАЦИИ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ НАРУШЕНИЯМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА В КРЕДИТНОМ СЕКТОРЕ**

### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье комплексно анализируются теоретико-правовые, институциональные и практические аспекты деятельности органов прокуратуры по координации противодействия нарушениям законодательства в кредитном секторе. Кредитные отношения рассматриваются как важный финансово-правовой институт, оказывающий непосредственное влияние на устойчивость банковской системы, экономическую безопасность, доверие к финансовым организациям и инвестиционную привлекательность государства. В этой связи нарушения в кредитном секторе исследуются не только как частноправовые споры между банком и клиентом, но и как системное явление, способное затрагивать финансовую дисциплину, коррупционные риски, легализацию преступных доходов, рост проблемной задолженности и экономические интересы государства. В статье раскрывается координационная функция прокуратуры как самостоятельное направление прокурорской деятельности, связанное с обеспечением законности, межведомственного взаимодействия, профилактики правонарушений и повышения эффективности деятельности уполномоченных органов. Особое внимание уделяется взаимодействию прокуратуры с Центральным банком, налоговыми органами, структурами финансового мониторинга, коммерческими банками и правоохранительными органами при выявлении, предупреждении и пресечении нарушений в кредитной сфере. На основе анализа научных подходов и практических данных обоснована необходимость перехода от преимущественно реактивной модели реагирования к риск-ориентированной и профилактической системе прокурорской координации. В статье также проводится сравнительно-правовой анализ опыта Германии, США, России и рекомендаций FATF. В результате сформулированы предложения по формированию корпуса специализированных прокуроров, внедрению единой цифровой платформы мониторинга, совершенствованию обмена информацией, развитию RegTech- и SupTech-инструментов, а также усилению профилактического прокурорского анализа в кредитном секторе.

**Ключевые слова:** кредитный сектор, нарушения законодательства, прокурорский надзор, координация прокуратуры, финансово-банковская система, экономическая безопасность, проблемные кредиты, банковская тайна, конфликт интересов, легализация преступных доходов, AML/CFT, цифровой мониторинг, риск-ориентированный надзор, специализированные прокуроры.

**Khazratqulov Zakhriddin Sobirjanovich,**  
Independent Researcher of Law Enforcement Academy  
of the Republic of Uzbekistan  
E-mail: mamajanovabror2001@gmail.com

## **THEORETICAL, LEGAL AND PRACTICAL ASPECTS OF THE ACTIVITIES OF PROSECUTION AUTHORITIES IN COORDINATING THE FIGHT AGAINST VIOLATIONS OF LAW IN THE CREDIT SECTOR**

### **ANNOTATION**

This article provides a comprehensive analysis of the theoretical, legal, institutional and practical aspects of the activities of prosecution authorities in coordinating the fight against violations of law in the credit sector. Credit relations are examined as a significant financial and legal institution that



directly affects the stability of the banking system, economic security, public trust in financial institutions and the investment environment. From this perspective, violations in the credit sector are considered not merely as private contractual disputes between banks and clients, but as a systemic phenomenon capable of undermining financial discipline, increasing corruption risks, facilitating the legalization of criminal proceeds, expanding the share of non-performing loans and threatening the economic interests of the state. The article substantiates the coordinating function of the prosecution authorities as an independent area of prosecutorial activity aimed at ensuring legality, strengthening interagency cooperation, preventing offenses and improving the effectiveness of competent public bodies. Particular attention is paid to cooperation between the prosecution authorities, the Central Bank, tax authorities, financial monitoring bodies, commercial banks and law enforcement agencies in detecting, preventing and suppressing violations in the credit sector. Based on scholarly approaches and practical materials, the article argues for a transition from a predominantly reactive model of response to a risk-based and preventive model of prosecutorial coordination. The study also examines the experience of Germany, the United States, Russia and the recommendations of the FATF in a comparative legal context. As a result, the article proposes the establishment of specialized prosecutors for financial offenses, the introduction of a unified digital monitoring platform, the improvement of interagency information exchange, the application of RegTech and SupTech tools, and the strengthening of preventive prosecutorial analysis in the credit sector.

**Keywords:** credit sector, violations of law, prosecutorial supervision, prosecutorial coordination, financial and banking system, economic security, non-performing loans, banking secrecy, conflict of interests, legalization of criminal proceeds, AML/CFT, digital monitoring, risk-based supervision, specialized prosecutors.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar moliya-bank tizimining barqaror, shaffof va ishonchli faoliyat yuritishini ta'minlashni davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylantirmoqda. Kredit sektori iqtisodiyotning real tarmoqlarini moliyalashtirish, tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash, aholi ehtiyojlarini qondirish va investitsiyaviy faollikni oshirishda hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli kredit munosabatlaridagi har qanday qonun buzilishi faqat bank va qarzdor o'rtasidagi xususiy huquqiy nizo sifatida emas, balki kengroq miqyosda – moliyaviy intizom, bank tizimiga bo'lgan ishonch, byudjet manfaatlari, iqtisodiy xavfsizlik va huquqiy tartibotga ta'sir ko'rsatuvchi hodisa sifatida baholanishi lozim.

Kredit sektoridagi huquqbuzarliklar turli shakllarda namoyon bo'ladi. Ular qatoriga qalbaki hujjatlar asosida kredit olish, bank xodimlari va mijozlar o'rtasida manfaatdorlik asosida til birlashtirish, qarzdorning to'lov qobiliyatini sun'iy ravishda ijobiy ko'rsatish, kredit mablag'laridan maqsadsiz foydalanish, foiz va komissiya shartlarini yashirish, bank operatsiyalari orqali jinoiy daromadlarni legallashtirish kabi holatlarni kiritish mumkin. Bunday huquqbuzarliklar moliyaviy resurslarning adolatli taqsimlanishiga putur yetkazadi, muammoli kreditlar ulushini oshiradi, banklar likvidligiga salbiy ta'sir qiladi va moliyaviy bozor ishtirokchilari o'rtasida ishonch inqirozini yuzaga keltiradi.

Mazkur sharoitda prokuratura organlarining roli faqat sodir etilgan qonun buzilishiga nisbatan ta'sir chorasini qo'llash bilan cheklanmaydi. Prokuratura organlari qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylilikni mustahkamlash, fuqarolar, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda profilaktika qilish vazifalarini bajaradi. Bu vazifalar "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning 2-moddasida belgilangan umumiy institutsional maqsadlar bilan bevosita bog'liq. Shu bilan birga, prokuror talablarining majburiyligi prokuraturaning boshqa organlar bilan munosabatida huquqiy ta'sirchanlikni ta'minlovchi muhim kafolat hisoblanadi.

Kredit sektoridagi qonun buzilishlari moliyaviy tashkilotlar, banklar, mijozlar, qarzdorlar, kafillar, garov beruvchilar va boshqa ishtirokchilar o'rtasidagi kredit munosabatlarida qonunchilik hujjatlari, shartnoma shartlari, bank ichki qoidalari va moliyaviy intizom talablarining buzilishi bilan bog'liq huquqiy hodisadir. Ushbu tushuncha mazmunan keng bo'lib, unda fuqarolik-huquqiy majburiyatlarni bajarmaslikdan tortib, ma'muriy, korruptsiyaviy va jinoiy-huquqiy xarakterdagi qilmishlargacha bo'lgan holatlar qamrab olinadi.

Sh. Turobov kredit sektoridagi qonunbuzarliklarni bank tizimi va moliyaviy munosabatlarda shartnomaviy yoki qonunchilik talablarini ataylab yoki ehtiyotsizlik oqibatida buzish holati sifatida talqin qiladi [1]. Ushbu yondashuvning ilmiy ahamiyati shundaki, kredit sohasidagi huquqbuzarliklar faqat qasd bilan sodir etilgan jinoiy harakatlardan iborat emas, balki bank xodimlari yoki mijozlarning ehtiyotsizligi, yetarli darajada tekshiruv o'tkazmasligi, kreditga layoqatlilikni yuzaki baholashi, ichki nazorat tartiblariga rioya qilmasligi natijasida ham yuzaga kelishi mumkin. Demak, bunday yondashuv javobgarlik asoslarini farqlash, huquqbuzarliklarning sub'ektiv tomonini aniqlash va profilaktik choralarini to'g'ri belgilash uchun muhim metodologik asos yaratadi.

M. Bazarova esa kredit sektoridagi huquqbuzarliklarni moliyaviy barqarorlikka tahdid soluvchi omil sifatida baholaydi [2]. Bu qarash kredit sohasidagi qonun buzilishlarini faqat alohida bank operatsiyasi yoki shartnoma doirasida emas, balki moliyaviy tizim barqarorligi nuqtai nazaridan baholash zarurligini ko'rsatadi. Chunki bank ichki nazoratining zaifligi, axborot asimmetriyasi, manfaatlar to'qnashuvi va mijozlar haqidagi ma'lumotlarning yetarlicha tekshirilmasligi muammoli kreditlar hajmini oshiradi. Muammoli kreditlar esa bank aktivlari sifatiga, likvidlik darajasiga, kredit siyosatining ishonchliligiga va butun moliya bozoridagi barqarorlikka ta'sir ko'rsatadi.

Kredit sektoridagi huquqbuzarliklarning huquqiy tabiatini baholashda ularning bir necha o'zaro bog'liq qatlamlarini ajratish maqsadga muvofiq. Birinchi qatlam – shartnomaviy buzilishlar. Bunda qarzdor kredit shartnomasida belgilangan majburiyatlarni bajarmasligi, to'lov muddatlarini buzishi, garov predmetini saqlash tartibiga rioya qilmasligi yoki kredit mablag'larini shartnomada ko'rsatilgan maqsaddan boshqa yo'nalishga sarflashi mumkin. Ikkinchi qatlam – bank tartib-taomillarini buzish. Bunda bank xodimlari kredit ajratish jarayonida mijozning to'lov qobiliyatini yetarlicha tekshirmasligi, garov bahosini sun'iy oshirishi, kredit hujjatlarini rasmiyatchilik uchun rasmiylashtirishi yoki kredit qo'mitasi qarorlarini belgilangan tartibda qabul qilmasligi mumkin. Uchinchi qatlam – korruptsiyaviy huquqbuzarliklar. Bunda bank xodimi, mijoz, baholovchi, kafil yoki boshqa manfaatdor shaxslar o'rtasida noqonuniy kelishuv yuzaga keladi. To'rtinchi qatlam – jinoiy-huquqiy holatlar. Bunda o'zlashtirish, rastrata, firibgarlik, qalbaki hujjatlardan foydalanish, noqonuniy bank operatsiyalari yoki jinoiy daromadlarni legallashtirish kabi qilmishlar sodir etiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni banklar faoliyatini tashkil etish va tartibga solishga oid asosiy huquqiy baza hisoblanadi. Ushbu Qonun banklar faoliyatiga oid munosabatlarni qonunchilik hujjatlari asosida tartibga solishini belgilaydi. Shu jihatdan kredit operatsiyalari bank faoliyatining muhim yo'nalishi bo'lib, ular qonunchilik, ichki bank siyosati va prudensial talablar bilan uyg'un holda amalga oshirilishi kerak.

Kredit sektorida korruptsiyaviy xavflar ham alohida ahamiyatga ega. "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'lib, kredit ajratish jarayonida manfaatlar to'qnashuvi, xizmat mavqeidan foydalanish, noqonuniy ustunlik berish yoki bank xodimi tomonidan mijoz manfaatiga g'ayriqonuniy harakat qilish kabi holatlarni baholashda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Jinoyat kodeksi normalari nuqtai nazaridan kredit sektoridagi huquqbuzarliklar turli moddalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, manbada JK 167, 177 va 233-moddalar bilan bog'liq holatlar qayd etilgan. Shu bilan birga, Jinoyat kodeksi matnida 167-modda "O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toraj qilish" deb nomlangani inobatga olinsa, kredit mablag'larini talon-toraj qilish holatlarini kvalifikatsiya qilishda moddaning aniq dispozitsiyasiga tayanish zarur. Bu esa kredit sektoridagi qilmishlarni huquqiy baholashda umumiy tavsif bilan cheklanmasdan, har bir qilmishning ob'ektiv va sub'ektiv belgilari, yetkazilgan zarar, ishtirokchilar maqomi va qasd mazmunini alohida tahlil qilishni talab qiladi.

Kredit sektorida qonun buzilishlariga qarshi kurashda turli sub'ektlar ishtirok etadi: Markaziy bank, tijorat banklari, soliq organlari, moliyaviy monitoring organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sudlar va prokuratura. Ularning har biri o'z vakolatiga ega bo'lsa-da, kredit sohasidagi huquqbuzarliklar ko'p hollarda kompleks xarakterga ega bo'lgani uchun alohida organning mustaqil harakati yetarli natija bermasligi mumkin. Shu sababli mazkur sohada muvofiqlashtirish alohida institutsional ahamiyat kasb etadi.



V.P. Ryabtsev muvofiqlashtirishni umumiy maqsadga erishish uchun yagona tizim doirasida harakat qiluvchi sub'ektlarning harakatlarini moslashtirish jarayoni sifatida ta'riflaydi [9]. Bu ta'rif prokuraturaning kredit sektoridagi faoliyatiga tatbiq etilganda, muvofiqlashtirishning asosiy maqsadi turli organlarning tarqoq va fragmentar harakatlarini yagona huquqiy natijaga yo'naltirishdan iborat ekani ko'rinadi. Bunday yondashuvda prokuratura faqat tekshiruvchi yoki jinoiy ta'qibni amalga oshiruvchi organ sifatida emas, balki institutsional aloqalarni birlashtiruvchi huquqiy markaz sifatida namoyon bo'ladi.

A.Yu. Vinokurov prokuratura muvofiqlashtirishini jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan prokurorlik funktsiyasi sifatida baholaydi [10]. Bu qarash kredit sektoridagi qonun buzilishlari uchun ayniqsa ahamiyatli. Chunki kredit sohasida huquqbuzarlikni aniqlash, moliyaviy harakatlarni tahlil qilish, bank hujjatlarini o'rganish, jinoiy daromadlar harakatini kuzatish va zararni undirish bir vaqtning o'zida bir necha organ hamkorligini talab qiladi. Agar ushbu harakatlar o'zaro bog'lanmasa, dalillarni to'plash, javobgar shaxslarni aniqlash va zararni qoplash jarayoni sustlashadi.

O.S. Kapinus va S.G. Kexlerov muvofiqlashtirishni prokuratura faoliyatining alohida funktsiyasi sifatida baholab, uni nazorat yoki ta'qib funktsiyasidan mazmunan farqli deb ko'rsatadi [11]. Ushbu yondashuv ilmiy jihatdan muhim, chunki prokuratura muvofiqlashtiruvini prokuror nazoratining oddiy qo'shimcha elementi sifatida emas, balki mustaqil funktsional yo'nalish sifatida tushunish imkonini beradi. Kredit sektorida bu mustaqillik yanada yaqqol namoyon bo'ladi: prokuror bankni bevosita boshqarmaydi, Markaziy bank vakolatlarini o'zlashtirmaydi, tijorat banklarining xo'jalik qarorlarini qabul qilmaydi, ammo qonun ustuvorligini ta'minlash maqsadida tegishli organlar harakatlarini huquqiy jihatdan uyg'unlashtiradi.

B. Po'latov O'zbekiston prokuratura organlari faoliyatida muvofiqlashtirish Bosh prokurorning sohaviy buyruqlari va alohida qarorlari orqali amalga oshirilishini ta'kidlaydi [12]. Bu qarash prokuratura muvofiqlashtiruvining huquqiy-tashkiliy asoslarini tushunishda muhim. Chunki muvofiqlashtirish faqat nazariy tushuncha emas, balki amaliyotda yig'ilishlar, ishchi guruhlar, qo'shma qarorlar, axborot almashish tartiblari, taqdimnomalar, tekshiruv rejalari va tahliliy ma'lumotlar orqali amalga oshiriladigan tizimli faoliyatdir.

F. G'aybullaev prokuratura va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida ma'lumot almashish, rejalarni muvofiqlashtirish va birgalikdagi operatsiyalarni tashkil etish orqali qonun ustuvorligini ta'minlash jarayonini muvofiqlashtirishning asosiy mazmuni sifatida ko'radi [13]. Bu yondashuv kredit sektori uchun alohida ahamiyatga ega, chunki bank operatsiyalaridagi huquqbuzarliklar ko'pincha bir vaqtning o'zida moliyaviy, soliq, korruptsiyaviy va jinoiy-huquqiy belgilarga ega bo'ladi. Shuning uchun ma'lumot almashishning tezkorligi va ishonchliligi prokuratura muvofiqlashtiruvining amaliy samaradorligini belgilaydi.

